

## AGROLOGISTIKA SANOAT MAJMUASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**M.A.Abdunabiyeva**

*Farg‘ona politexnika instituti 3 kurs 97-20 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali agrologistika sanoat majmuasini rivojlanirish omillari hamda uning muammolari va istiqbollarini o‘rganishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Logistika, agrologistika, qishloq xo‘jaligi, agrosanoat majmui, iqtisodiyot mahsulotlarni yetkazish.

Agrologistika o‘zi nima va unga berilgan ta’riflarga to‘xtaladigan bo‘lsak, agrologistikaga hozirgi vaqtga qadar rasmiy ta’rif berilmagan, lekin agorlogistika sohasi va faoliyatining mazmunidan kelib chiqib unga ta’rif beradigan bo‘lsak, agrologistika – bu qishloq xo‘jalik maxsulotlarini hamda xom ashyni ishlab chiqarishdan tortib to yetkazib berishgacha bo‘lgan faoliyatni o‘zida aks ettiradi. Shunindek, qishloq xo‘jalik maxsulotlarini ishlab chiqarish, marketing, boshqaarish va logistikani o‘zida birlashtirgan faoliyatdir.

Yuqoridagi berilgan ta’rifdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, agrologistikani biz qishloq xo‘jaligi kompllekisi va logistika tarmog‘isiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, agrologistika, qishloq xo‘jaligi komplleksi va logistikani o‘zida mujassamlashtirgan. Buni quydagи diagramma orqali ham ko‘rishimiz mumkin.



Logistika atamasiga to‘taladigan bo‘lsak, logistika – bu ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar doirasida tovar va xizmatlarni xaridor tomon harakat samaradorligini oshirish maqsadida “xom-ashyo sotib olish, taqsimlash, sotish va iste’mol qilish”da yagona tizimga birlashgan turli tashkilot va kompaniyalarning barcha operatsiyalar, muolaja va vazifalarni muvofiqlashtirish asosida integratsiyalangan birgalikdagi faoliyatidir.

«Logistika» termini xorijiy va boshqa adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. «Logistika» so‘zi inglizcha (logistics) so‘z bo‘lib, «sanoq san’ati», “tafakkur qilish, hisoblash san’ati” demakdir.

Shuningdek, agrosanoat majmuiga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston agrosanoat majumida 2000-yillarda faol rivojlanish boshlandi. Davlat tomonidan



tuproq unumdorligini tiklash maqsadida mahalliy hamda xorijiy mablag'lar sarflana boshlandi hamda agrosanoat majmuida transport-logistikasini qo'llash va rivojlantirish, ya'ni agrologistikaga bo'lgan talabning kuchayishiga olib keldi. Agrologistika – agrosanoat ishlab chiqarishi va agrar sohada logistikaning qoidalari va usullarini qo'llash bilan o'zaro bog'langan agrologistikaning yangi amaliy yo'nalishdir.

Shuningdek, Agrosanoat majmui (ASM) - xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligi xom ashysidan aholining oziq-ovqat va xalq iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadigan tarmoqlar, kor-xonalar, faoliyat turlari majmui. ASM murakkab va ko'p tarmoqlidir. Uning ishlab chiqarish tuzilmasida qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi muhim ahamiyatga ega. ASM 3 sohani o'z ichiga oladi:

- 1) qishloq xo'jaligi (aholining tomorqa xo'jaligi ham kiradi) va o'rmon xo'jaligi;
- 2) qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, traktor va qishloq xo'jaligi mashina-sozligi, meliorativ va suv xo'jaligi ob'ektlari qurilishi tarmoqlari, asosiy fondlar ta'miri bo'yicha korxo-nalar, mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilish vositalari, biologik faol preparatlar ishlab chiqarish, ozuqa va mikrobiol. sanoati, turli idishlar (tara) tayyor-lash va b;
- 3) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berish bilan band bo'lgan tarmoqlar(tayyorlov, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish va boshqalar).

Shuningdek, agrologistika sanoat majmuasini rivojlantirish omillariga to'xtaladigan bo'lsak;

**Birinchidan**, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ulgurji bozorini shakillantirish;

**Ikkinchidan**, chet el investorlarini jalb qilish orqali agrologistika sanoat majmuolarini ko'paytirish;

**Uchinchidan**, logistikani rivojlantirish, xom ashyo va tovarlarin saqlash hamda qayta ishlash majmuolarini ko'paytirish;

**To'rtinchidan**, ulgurji bozorlar sotuvchi va sotib oluvchilarning nafaqat mahsulotlarni sotish yoki sotib olish, balki to'liq xizmat spektrlarini olish, jumladan sotish uchun tovarlarni tayyorlash, to'lovlarni o'tkazish, kreditlar olish, transport xizmatlari, tovarlar bo'yicha narxlar to'g'risida bilish, yangi texnologiyalar to'g'risida maslahat xizmatlaridan axborotlar olish bo'yicha hududiy agrar markazlarga aylantirilish;

**Beshinchidan**, agrologistikani rivojlantirish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish;

**Oltinchidan**, agrologistikani rivojlantirish bo'yicha eko sistima tashkil qilish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ulgurji bozorini shakillantirish hamda logistika harakatlanishi uchun qulay sharoyit yaratish, maxsulotlarni saqlash va qayta ishlash uchun zamonaviy texnikalarni jalb qilish. Shuningdek, agrologistika "Eko sistemasi"ni ishlab chiqish hamda davlatimiz

tomonidan ushbu sohani rivojlantirish uchun investorlarni jalb qilish orqali agrologistika sanoati majmuiyi rivojlantira olishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Bo‘riyev.X.Ch// Samatov.G‘.A// Rustamova.I.B// Agrologistika asoslari// Bases of agrologistics// Toshkent- 2003.
2. Лайнос К., Джиллингем М. Управление закупочной деятельностью и цепью поставок. Пер. с англ. -М.: ИНФРА-М, 2005. 798 с.
3. [www.Inetlibarary.com](http://www.Inetlibarary.com)
4. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)